



**BUYUK IPAK YO'LINING TARIXIY-MADANIY AHAMIYATI HAMDA
DIPLOMATIK ALOQALAR VA ELCHILIK MUNOSABATLARI**

Sunnatilloeva Ruxshona

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti 4-
kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: Olimjon Irisqulov

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti
o'qituvchisi*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Buyuk Ipak yo'lining tarixiy-madaniy va iqtisodiy ahamiyati, karvon yo'llari, Buyuk Ipak yo'lida joylashgan shaharlar tarixi, hamda diplomatik aloqalar va elchilik munosabatlari keng yoritilgan. Tadqiqot davomida Buyuk Ipak yo'lining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda sharq va g'arb o'rtasidagi savdo aloqalarini mustahkamlashdagi roli tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar.** Buyuk ipak yo'li, shoh yo'li, Qoshg'ar, Yorkent, Xo'tan, Samarqand qog'ozi, So'g'd, Davan, Kesh-Naxshab, Xitoy, Karl Rixtgofen, Taklamakon cho'li, Afrosiyob, Xo'ja Korzon, Dabusiya.*

Kirish. Buyuk Ipak yo'li Insoniyat tarixidagi eng muhin savdo va madaniy aloqalar tizimlaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Mazkur yo'l qadim zamonlardan boshlab sharq va g'arb mamlakatlarini o'zaro bog'lab nafaqat iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga balki xalqlar o'rtasida madaniy, ilmiy siyosiy aloqalarni shakllanishiga ham xizmat qilgan. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki Buyuk Ipak yo'li nafaqat tarixiy savdo yo'li balki davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar elchilik tizimining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa turli davlatlar o'rtasida siyosiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi tinchlik va hamkorlikni muhtakamlashda elchilik missiyalarining o'rni beqiyosdir.

Buyuk Ipak yo'li. Buyuk Ipak yo'li mil.avv II-asrdan milodiy XVI asrgacha mavjud bo'lgan. Qadimgi va O'rta asrlarda sharq va g'arb mamlakatlarini o'zaro



bog'lagan ilk qit'alararo karvon yo'li hisoblangan. Ipak yo'li atamasi ushbu yo'ldan tashilgan qimmatbaho mahsulot Xitoy ipagi bilan bog'liq. Buyuk ipak yo'li atamasi qadimda ishlatilmagan 1877-yili mashhur nemis olimi Karl Rixtgofen o'zining "Xitoy" nomli yirik ilmiy asarida ulkan Yevroosiyo materigining turli qismlarini bog'lovchi yo'llar tizimi " Ipak yo'li deb atalgan, keyinchalik " Buyuk Ipak yo'li " atamasi qabul qilingan .Uning uzunligi 12 ming km ni tashkil etgan. Buyuk Ipak yo'lida qit'alararo savdo yo'li Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'lab, o'tmishda antik Rim davlatidan to Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahrigacha cho'zilgan edi.

Buyuk Ipak yo'lining tarixiy-madaniy ahamiyati. Savdo aloqalari hosil bo'lishiga Markaziy Osiyo tog'larida yarim qimmatbaho toshlar – Sharqda nihoyatda qadrlangan lazurit, nefrit, aqiq, feruzalar qazib chiqariladigan konlarni topib, qazib olish ko'p jihatdan ko'maklashgan. Masalan, Markaziy Osiyodan Eronga, Mesopotamiyaga va hatto Misrga lazurit toshi yetkazib beriladigan „lazurit yo'li“ mavjud edi. U bilan bir paytda „nefrit yo'li“ ham tarkib topgan, bu yo'l Xo'tan va Yorkend tumanlarini Shimoliy Xitoy mintaqalari bilan bog'lar edi. Bundan tashqari, Old Osiyo mamlakatlariga So'g'diyona va Baqtriya davlatlaridan aqiq toshlari olib ketilar edi, Xorazmdan esa feruza keltirilgan[1].

Bu yo'nalishlarning barchasi oxir-oqibat Buyuk Ipak yo'lga kirib mujassamlashgan. Markaziy Osiyodan G'arbga va Janubga o'tkazilgan karvon yo'llarini hamda Xitoydan Sharqiy Turkistonga olib boradigan yo'llarni o'zaro bog'lab bergan buyuk yo'lining haqiqiy boshlanishini tarixchilar eramizdan avvalgi ikkinchi asrning o'rtalarida, deb hisoblaydilar.

Miloddan avvalgi 2-asrgacha ham Sharq bilan G'arb o'rtasida O'rta Osiyo karvon yo'llari orqali amalga oshirilgan aloqalar mavjud bo'lgan. Bunga Tog'li Oltoydagi Poziriq qo'rg'onidan topilgan Kichik Osiyoda tayyorlangan buyumlar, Afg'oniston va O'rta Osiyodan topilgan yunon buyumlari misol bo'lishi mumkin. Iskandar Maqduniy saltanati tuzilishi bilan bu aloqalar to'g'ri yo'lga solingan. Buyuk ipak yo'lining sharqiy qismini barpo etishda so'g'diylar katta rol o'ynaganlar. Iskandar Maqduniy tomonidan Sug'diyona mamlakati istilo etilishi bilan ko'plab



sugʻdiylar sharqqa tomon koʻchganlar va Buyuk ipak yoʻlining markaziy qismini – Oʻrta Osiyodan tortib Xitoyning Chanan shahrigacha boʻlgan oraliq masofada savdo manzilgohlari bunyod etganlar. Ammo Suriyadagi Oʻrta dengizning sharqida joylashgan Giyerapol shahridan Serika (Xitoy)gacha boʻlgan masofa boʻylab tuzilgan dastlabki batafsil yoʻllik makedoniyalik savdogar May Titsian (milodiy 100 yil) tomonidan tuzilgan. Bu maʼlumotlar Klavdiy Ptolomeyning „Geografik qoʻllanma“sida saqlangan. Ptolemey esa oʻz navbatida bu maʼlumotlarni tarixchi Marinning taxminan 107—114-yillar oraligʻida yozilgan va bizgacha yetib kelmagan asarlaridan olgan.

Buyuk Ipak yoʻlida joylashgan shaharlar.Buyuk Ipak yoʻlida joylashgan savdo shaharlaridan biri bu Qoshgʻar hisoblanadi.Qadimda Qoshgʻar “suli” “suvlik” degan maʼnolarni bildirgan. Qashgʻar toponimi VIII asrda paydo boʻlib “qosh toshi (nefrit) koni”, manosini anglatadi.Qoshgarning aniq yoshi maʼlum emas shunga qaramay uning yoshi Buyuk Ipak yoʻlining tarixidan kam emas, chunki Buyuk Ipak yoʻli rivojlangan davrda Qoshgʻar uning eng gulab yashnagan savdo markazlaridan biri edi.Xitoyning Vey sulolasi tarixida Qoshgʻar “Sule” davlati Xan davrida mavjud boʻlgan qadimiy xonlikdir. Ushbu davlat xoni boshiga sher shakli tushirilgan tillo toj kiyadi, ushbu davlatdan gʻarbga qarab 1000 chaqirimdan ortiq (500 km ga yaqin) yurilsa Fargʻona davlatiga yetib borishi mumkin” deyiladi.

Soʻgʻd.Sugʻud – Markaziy Osiyodagi qadimiy tarixiy-madaniy viloyat. Ilk bor miloddan avval VII-VI asrlarda qadimiy „Avesto“da tilga olingan. Bu nom 20-asr boshlarigacha saqlangan

Sugʻd Millatining soʻzining maʼnosi fanda har xil talqin qilib kelinadi. Masalan, Soʻch —Soʻz – „kuymoq, yonmoq, porlamoq“ deb izohlangan. Bundan Sugʻdni „Muqaddas ilohiy olov (Zardushtiylik tasavvuriga koʻra) bilan poklangan yer“ kabi maʼnoda talqin etishga harakat qilingan (V. Tomashek). Yana bir izohga koʻra, „Sugʻd“ soʻzi sernam, unumdor yer deb tushuniladi. Bunga hozirga qadar pastlik, suv yigʻiladigan yer Sugʻut“ deb nomlanishini dalil qilib koʻrsatiladi. Avestoda Sugʻd mamlakat nomi sifatida bir marta uchraydi.



So'g'diyonaning markazi Maroqanda shahri bo'lgan. Maroqandaning qoldiqlari – bu hozirgi Afrosiyob shahar xarobalaridir. Ahamoniylar davrida bu shaharning maydoni 219 gektardan iborat bo'lib, u mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Yunon tarixchilarining ma'lumotlariga qaraganda, Maroqandaning uzunligi 11 km ga yaqin bo'lgan tashqi devori va qo'rg'oni bo'lgan. So'g'diyonaning markaziy shaharlari qatoriga Qarshi atrofidagi Yerqo'rg'on, Qashqadaryoning sharqiy qismidagi Uzunqir yodgorliklarini ham kiritish mumkin. Bu yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi So'g'diyona aholisining xo'jaligi va madaniyatini chuqurroq o'rganish imkonini beradi[2].

Avesto“ning „Yasht“ kitobida tilga olingan „So'g'd makoni Gava“- So'g'diyonaning eng qadimgi viloyati bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Gava (Gau) – „buqa“, „poda“ degan ma'nolarini bildirib, u Qashqadaryo vohasi bilan bog'lanadi. Bu so'z viloyatning juda ko'p geografik nomlarida takrorlanib saqlangan. Qadimgi yunon tarixshunoslari So'g'diyonani Baqtriya yoki sak-massagetlariga nisbatan kamroq tilga olganlar. Makedoniyalik Iskandar yurishlaridan so'ng So'g'diyona haqida ma'lumotlar ancha to'liqroq bo'lib, kengayib boradi. So'g'diyona – bu Zarafshon, Qashqadaryo vohalarida joylashib, janubi-sharqda Baqtriya va shimoli-g'arbda Xorazm bilan chegaradosh bo'lgan. Qadimgi zamonlarda ham So'g'diyona muhim savdo yo'llarining chorrahasida joylashgan. So'g'diyona haqida „Avesto“, Gerodot va Ahamoniylar davri yozuvlarida ma'lumotlar berilgan

Samarqand qog'ozlari. IX asrga kelib, ushbu tarmoq shahar hunarmandchiligining eng muhim jabhalaridan biriga aylandi. Asta-sekinlik bilan Samarqand qog'ozlari butun sharq va g'arb bozorlarini ham egalladi. Ushbu mahsulotning turli xil navlari VIII asrdan XIX asrga qadar nafaqat O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda, balki Yevropaning ko'pgina davlatlariga dong'i ketdi. Sharq olamida Samarqand qog'ozlari Misr qog'ozlari kabi keng omma tomonidan foydalanila boshlandi. Bunga ayniqsa IX-X asrlarga kelib, ko'pgina fors va arab tilidagi asarlar va qadimiy qo'lyozmalar aynan Samarqand qog'oziga yozilishi yaqqol misol bo'la oladi. Asrlar davomida shaharning Siyob anhuri bo'yida ikki mingga yaqin suv



tegirmonlari ishlab turgan va ularning 400 dan ortig'ida qog'oz ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan.

Shaharga tashrif buyurgan barcha olimu fuzalolar, tarixchilar va sayohatchi mehmonlar bu qog'ozning sifati va chidamliligidan hayratga tushishgan. Bunga isbot sifatida turli asrlarda yashab ijod etgan ba'zi tarixchi va yozuvchilarning Samarqand qog'oziga bergan ta'riflarini, yozma manbalardagi ma'lumotlarni qayd etib o'tishni lozim deb topdik. Arab tarixchisi Al-Maqdisiyning (X asr) ma'lumotlariga ko'ra, Xorazmda ishlab chiqarilgan kamonlar, Shoshning sopol idishlari hamda Samarqand qog'ozlari Buyuk Ipak yo'lida ayirboshlanadigan mollar ichida eng mashhuri va bebahosi bo'lgan.

Buyuk Ipak yo'lida diplomatik aloqalar va elchilik munosabatlari. O'z navbatida Xan imperiyasi miloddan avvalgi 1-ming yillik oxirida o'z hududini O'rta Osiyo tomon kengaytirish siyosati yurgizib bu yo'nalishga alohida e'tiborini qaratadi va bu yo'l haqida ma'lumot to'plash, ayg'oqchilik va diplomatik maqsadlarida elchi Chjan Szyanni yuboradi. O'zining mashhur sayohati davomida miloddan avvalgi 138—126 yillarda xitoylik diplomat Chjan Szyanni Farg'ona otlarining go'zalligidan hayratda qoldi. Miloddan avvalgi 138 yil imperator tomonidan garbga, yuyechjilar bilan xunlarga qarshi ittifoq tuzish maqsadida yuborilgan. Xunlar qo'liga tushib qolib, faqat 10 yil o'tgachgina qochishga muvaffaq bo'lib sayohatini davom ettirgan.. Miloddan avvalgi 115 yil elchilarga bosh bo'lib Xitoy chegaralaridan g'arbdagi ko'chmanchi usun qabilasi hukmdori (gunmo) huzuriga jo'natilgan. Chjan Szyan uni Xitoy bilan ittifoq tuzishga ko'ndirgan. safar jarayonida Chjan Szyan xotira yozgan yoki yozmaganligi haqid a aniq ma'lumot yo'q Ammo u qaytib kelganidan so'ng o'z hukmdorig ayoyma hisobot berib ko'rgan bilganlarinii batafsil bayon etgan. U Farg'ona vodiysida ko'rgan bu ulug'vor tulporlar nafaqat go'zalligi va salobati bilan ajralib turar, balki o'sha davrdagi past bo'yli xitoy otlaridan ancha ustun xususiyatlarga ega edi. Farg'ona otlari, shuningdek, "osmon tulporlari" sifatida ham mashhur bo'lib, xitoy kavaleriyasining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Ular kuch va tezlik timsoliga aylandi va kavaleriyaga kiritilishi Xan sulolasiga katta harbiy ustunlik yaratishga yordam berdi. Bu afsonaviy tulporlar tarixda o'chmas iz qoldirib,



butun dunyodagi otlarni qadrllovchi avlodlarga ilhom bag'ishladi. Bundan tashqari, Farg'ona tulpori Buyuk Ipak yo'li ramziga aylandi, ba'zan uni "otli yo'l" deb ham atashadi, bu qadimgi savdo yo'lining rivojlanishida otlarning ahamiyatini ko'rsatib turadi[3].

Buyuk Ipak yo'lining bugundi kundagi tarixiy ahamiyati va jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni. Insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri - Buyuk ipak yo'li asrlar davomida tasavvurga sig'mas darajada insoniyat tamadduniga keskin burilish yasadi, mislsiz kashfiyotlarga sababchi bo'ldi. U nafaqat uzoq manzillar va elatlarni bir-biriga yaqinlashtirdi, balki turli g'oya va madaniyatlar o'chog'i va chorrahasiga aylandi. Tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirdi. Buyuk Ipak yo'li nafaqat o'tmishdagi savdo yo'li, balki insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishida muhim rol o'ynagan tarixiy fenomen hisoblanadi. Uning bugungi kundagi ahamiyati — xalqlar o'rtasidagi hamkorlik, madaniyatlararo muloqot va global integratsiya jarayonlari uchun mustahkam tarixiy asos bo'lib xizmat qilishidadir.

Xulosa. Buyuk Ipak yo'li insoniyat tarixida Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarni shakllantirgan muhim tarixiy tizim hisoblanadi. U qadimgi va o'rta asrlarda xalqaro savdoning rivojlanishiga, shaharlar va savdo markazlarining vujudga kelishiga hamda turli sivilizatsiyalar o'rtasida o'zaro ta'sir kuchayishiga katta hissa qo'shgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Buyuk Ipak yo'li orqali nafaqat tovarlar almashinuvi, balki ilm-fan yutuqlari, diniy g'oyalar, madaniy qadriyatlar va diplomatik munosabatlar ham keng tarqalgan. Bu jarayon esa jahon sivilizatsiyasining rivojlanishida integratsion omil sifatida muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda Buyuk Ipak yo'lining tarixiy merosi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash va global iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli, Buyuk Ipak yo'li insoniyat taraqqiyotida sivilizatsiyalarni birlashtirgan muhim tarixiy hodisa sifatida baholanadi. Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Samarqandda barpo etilgan "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turizm markazi 2022-yil avgustda ochilgan va mintaqadagi eng yirik majmualardan biri hisoblanadi. Tarixiy



Buyuk Ipak yo'li o'tgan mintaqada turizm, iqtisodiy hamkorlik va madaniy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ablat Xo'jayev "Buyuk Ipak yo'li munosabatlar va taqdirlar" O'ZME Toshkent - 2007
2. Ahmedov B.A. "Buyuk Ipak yo'li tarixi", Toshkent -2007 .180-bet
3. Abdukarimov H. " Buyuk ipak yo'li va Markaziy Osiyo ", Toshkent-2005
4. Foltz R. — Religions of the Silk Road: Premodern Patterns of Globalization. New York: Palgrave Macmillan, 2010. — 248 p.
5. Hansen V. — The Silk Road: A New History. Oxford: Oxford University Press, 2012. — 304 p.